



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI
SAQLASH
VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM,
FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**TOSHKENT
FARMATSEVTIKA
INSTITUTI**

25

oktyabr 2023-yil

IV

**Xalqaro
ilmiy-amaliy
anjuman**

“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”

**IV XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

(Professor S.N.Aminovning xotirasiga bag'ishlanadi)

**МАТЕРИАЛЫ IV МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ, “СОВРЕМЕННОЕ
СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ”**

(Посвящается памяти профессора С.Н.Аминова)

**ABSTRACT BOOK OF THE IV INTERNATIONAL
SCIENTIFIC**

**“MODERN PHARMACEUTICS: ACTUAL PROBLEMS
AND PROSPECTS”**

(Dedicated to the memory of Professor S.N. Aminov)

TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE**

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”
IV XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

(Professor S.N.Aminovning xotirasiga bag‘ishlanadi)

**МАТЕРИАЛЫ IV МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ, “СОВРЕМЕННОЕ
СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ:
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ”**

(Посвящается памяти профессора С.Н.Аминова)

**ABSTRACT BOOK OF THE IV INTERNATIONAL
SCIENTIFIC “MODERN PHARMACEUTICS:
ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”**

(Dedicated to the memory of Professor S.N. Aminov)

188 ORGANIK ERITUVCHILARDAN FOYDALANIB SUVLI MUHITLARDAN KLOZAPIN VA OLANZAPINNI EKSTRAKTSIYAISH SHARTLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI O'RGANISH G.R.Zokirova, F.S.Jalilov.....	194
189 IN SILICO ПРОГНОЗИРОВАНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ 4',4''-ДИ-(1-ГИДРОКСИМЕТИЛ)-ДИБЕН-30-18-КРАУН-6 Козинская Л.К., Мирхамитова Д.Х., Тураева Х.К., Туляшева А.....	195
190 ТИОГИДРАЗОНЬ ГОССИПОЛА Краюшкин М.М., Степанов В.А., Яровенко В.Н.....	195
191 DORIVOR O'SIMLIKLAR ASOSIDA OLINGAN QON BOSIMINI PASAYTIRUVCHI VA TINCHLANTIRUVCHI TA'SIRGA EGA TINDIRMA (BFQ) SIFATINI BAHOLASH Pazilbekova Z.T., Yarkulova Yu.M.....	196
192 XALQ TABOBATIDA ISHLATILADIGAN TABIIY OLOT SHO'R KO'LI MINERAL TUZLARINING MAKROELEMENT TANHILI Raximova E.E., Jalilov F.S., Saidkarimova Yo.T.....	197
193 O'ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN EKMA ZA'FARON – CROCUS SATIVUS L. XOM ASHYOSIDAN OLINGAN QURUQ EKSTRAKT TARKIBIDAGI BIOFAOL MODDALARNI O'RGANISH Shomaqsudova M.O., To'laganov A.A., Ishimov U.J.....	198
194 ХЛОРОФИЛЛИПТ ВА ХЛОРГЕКСИДИН САҚЛОВЧИ СТОМАТОЛОГИК ФИТОПАРДАЛАРНИНГ МЎЪТАДИЛ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА ТУРҲУНЛИГИНИ ЎРГАНИШ Туреева Г.М.....	199
195 КАТТА ҚОНЧЎП (CHELIDONIUM MAJUS L.) ЎСИМЛИГИДАН ОЛИНГАН ЭКСТРАКТНИ ҚУРИТИШ УСУЛИНИ ТАНЛАШ Н.Б.Абдуназарова, Ё.С.Кариева, Д.С.Мирзакамалова.....	200
196 «INFLAMDENT» GELI TARKIBIDAGI VITAMIN K₁ NI MIQDORIY TAXLIL NATIJASINI VALIDATSIYALASH N.A. Yunusxodjayeva, D.R. Gulyamova, D.E. Yunusxojiyev, D.M.Sarvarova.....	201
197 ИЗУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ СОЕДИНЕНИЙ СТЕВОК ПЛОДОВ ФАСОЛИ ОБЫКНОВЕННОЙ (VAL-VAE FRUCTUUM PHASEOLI VULGARIS L.) М.Ш.Икрамова, М.К.Мухитдинова, Х.М.Комилов.....	202
198 УСТАНОВЛЕНИЯ ЗАВИСИМОСТИ «СТРУКТУРА - АКТИВНОСТЬ» 3-ФЕНОКСИКУМАРИНОВ Исмаилова Г. О., Жураева А. А.....	203
199 ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ КОЛИЧЕСТВЕННОГО ОПРЕДЕЛЕНИЯ БЕНЗИЛПЕНИЦИЛЛИНА КАЛИЕВОЙ И НАТРИЕВОЙ СОЛИ Пирназарова А.Х., Саидвалиев А.К., Ағлоходжаева Ш.М.....	204
200 RAMAN SPEKTROSKOPIYA USULIDA ATSETSILSALITSIL KISLOTA SAQLOVCHI DORI PREPARATINI IDENTIFIKATSIYALASH N.B. Saidkarimova.....	205
201 GEMOSTAT EKSTRAKTI ASOSIDA TAYYORLANGAN STOMATOLOGIK GELNI SAQLANISH MUDDATI VA SHAROITI-NI ANIQLASH N.M. Rizayeva, N.A. Yunusxodjayeva.....	206
202 ТИКАНЛИ АРТИШОК ХОМАШЁСИ ВА ҚУРУҚ ЭКСТРАКТИ МИҚДОРИЙ ТАҲЛИЛ УСУЛИ ВАЛИДАЦИЯСИ Зупарова З.А., Миррахимова Т.А., Исмоилова Г.М.....	207
203 GREK YONG'OG'I BARGIDAN OLINGAN QURUQ EKSTRAKTNING (JUGLANS REGIA L.) STRUKTURA-MEXANIK KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH Radjapova N.Sh., Karieva Y.S., Xodjaeva M.A.....	208

Такрорийлик лабораториялар орасидаги ҳаққонийликни ифодалайди. Ички лабораториявий қайта такрорланувчанлик кўрсаткичини аниқлаш мақсадида икки кун давомида икки аналитиклар оксидолчин кислоталари сакловчи ўсимлик барглари ва ҚЭларидан бир хил шароитда 6 та текширилувчи эритма тайёрлашди. Ҳар қайси ажратма бошқа ажратмага боғлиқ бўлмаган ҳолда тайёрланиб, оксидолчин кислоталари йиғиндисиди СФ усул ёрдамида аниқланди. Икки аналитиклардаги стандарт четланишлар статистик эквивалент бўлиб, ушбу усулнинг такрорийлигидан далолат беради.

Хулосалар. Юқорида келтирилганлар асосида, оксидолчин кислоталари йиғиндисининг доривор ўсимлик хом ашёси ва ҚЭ нинг микдорий таҳлил усули валидацияси амалга оширилиб, у қуйидаги валидацион параметрларни ўз ичига олади: аниқлилик ва такрорийлик, чизиклилик, тўғрилиқ ва ички лабораториявий қайта такрорланувчанлик.

GREK YONG'OG'I BARGIDAN OLINGAN QURUQ EKSTRAKTNING (JUGLANS REGIA L.) STRUKTURA-MEXANIK KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH

Radjapova N.Sh., Karieva Y.S., Xodjaeva M.A.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

Dolzarbli. Farmatsevtik dorivor va yordamchi moddalarning fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarini o'rganish, shuningdek ularning fizik holatini, xususan, zarrachalarning o'lchamlari va morfologiyasini (shakli va sathi) baholash zarurati bugungi kunda dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Ma'lumki, moddalar uchun amaldagi me'yoriy hujjatlar (O'zR DF, DF XIV, VFM, FM, KFM) odatda ularning texnologik parametrlariga, xususan, zarracha hajmiga qo'yiladigan talablarni nazarda tutmaydi. Bu esa tayyorlanish jarayonida MHga muvofiq sifat nazoratidan o'tgan dorivor modda KFMda tasdiqlangan yordamchi modda ishtirokida ham sifatli dori shaklini olish uchun yaroqsiz bo'lib chiqishiga olib keladi.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda keng tarqalgan grek yong'og'i bargidan olingan quruq ekstraktning struktura-mexanik ko'rsatkichlarini aniqlash navbatdagi izlanishlar maqsadi bo'lib belgilandi.

Usul va uslublar. Tahsil qilinayotgan quruq ekstraktning struktura-mexanik ko'rsatkichlarini o'rganish O'zR DF "2.9.37.Optik mikroskopiya" maqolasi talablariga muvofiq olib borildi.

Moddaning strukturaviy-mexanik xususiyatlarini o'rganish BA210 Digital raqamli kamerasi bo'lgan mikroskop yordamida amalga oshirildi. Mikroskop ob'yektiviga aniq va kontrastli tasvirlarni olish imkonini berishi uchun 3 megapikselli CMOS chipi o'rnatildi. O'rganilayotgan ekstraktning o'lchami va shaklini baholashda kattalashtirish 50 dan 300 martagacha o'zgartirildi. Mikrosuratlar natijalari rasmda keltirilgan.



Kattalashtirish 7x40=280



Kattalashtirish 7x20=140



Kattalashtirish 7x8=56

Rasm. Yong'oq bargi quruq ekstrakti namunasining turli kattalashtirishdagi mikrofotosurati

Natijalar. Olingan natijalarga asosan yong'oq bargidan olingan quruq ekstraktning zarrachalari konglomerat (conglomerate) lardan tashkil topgan bo'lib, bunda ikki turdagi

zarrachalar mavjud: tayoqchasimon (columnar) va plastinkasimon (plate). Ushbu zarrachalar chetlarining xarakteriga ko'ra burchakli va sinq, yuza qatlamining tavsifiga ko'ra esa – notekis deb ifodalandi. Zarrachalarning kengligi 2,14-4,29 mkm gacha, uzunligi 6,17-14,3 mkm gacha bo'ldi. Bunda o'rtacha uzunligining o'rtacha kengligiga nisbati 3:1 dan oshdi, ya'ni tahlil qilingan quruq ekstrakt zarrachalarining asosiy qismi tayoqchasimon shaklga ega va anizodimetrikdir.

Xulosa. Grek yong'og'i quruq ekstrakti asosida qattiq dori shakllari tarkibini tanlash hamda texnologiyasi ishlab chiqishda zarrachalarining struktura-mexanik tahlili natijalariga ahamiyat berish lozim.

“DEKSERICH” SUYUQ EKSTRAKTI TARKIBIDAGI FLAVONOIDLAR MIQDORINI YUSSX USULIDA ANIQLASH

*Iminova I.M., Axmatxuyanova M.K., Mamajalilova M.M.
Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi*

Dolzarbli: bugungi kunda o'simliklardan olingan tabiiy dori vositalariga talab ortib bormoqda.

Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va onalik makkajo'xori gulining ustunchasi bilan og'izchasidan tarkib topgan yig'madan suyuq ekstrakt olindi va Dekserich deb nomlandi. Dekserich LOR-organlari, yuqori nafas yo'llari va terining yallig'lanish patologiyalarini davolashda qo'llaniladi.

Tadqiqotning maqsadi: YuSSX usuli yordamida “Dekserich” suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdorini aniqlash.

Usul va uslublar: YuSSX usuli yordamida “Dekserich” suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdori aniqlandi. Dastlab eng optimal harakatchan faza tanlab olindi. Buning uchun quyidagi fazalar tayyorlandi va xromatografiya o'tkazildi: metanol – bufer eritma (85:15), metanol – suv (90:10), metanol – atsetonitril – suv (50:40:10). Bularni orasidan eng optimal muhit ya'ni, rutin moddasining piklari eng yaxshi chiqqan muhit metanol – bufer eritma (85:15) nisbatdagisi bo'ldi. Xromatografiyada foydalanilgan optimal sharoit: xromatograf – firma Agilent Technologies (AQSh), marka, Agilent 1260 Infinity”, spektrofotometrik detektor; kalonka o'lchami – 150 x 4,6mm; sorbent – Zorbax Eclipse XDB-CN; patok tezligi – 1.2 ml/min; na'muna olishhajmi – 20 mkl; temperatura – 30 °C; analiz davomiyligi – 14 min; o'lchangan to'lqin uzunligi – 356 nm.

Rutin standart eritmasini tayyorlash: 0,01 g (aniq tortim) rutin standartini tortib olib, 50 ml lik o'lchov kolbasiga solindi. Ustiga 15 ml harakatchan faza qoshiladi. 2 daqiqa davomida ultrato'lqinli hammonga eriguncha qo'yiladi. Rutin to'liq erib ketgach eritmaning hajmi kolba belgisigacha harakatchan faza bilan yetqaziladi. Undan 2 ml olinib, 250 ml o'lchov kolbasiga solinadi va harakatchan faza bilan kolba belgisigacha yetqaziladi. Tayyor bo'lgan eritma 0,45 µ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi. (Tayyorlangan eritmaning konsentratsiyasi 0.8mg/ml ga teng).

Ishchi eritma tayyorlash: 25 ml aniq o'lchab olingan Dekserich ekstrakt namunasi 100ml hajmli o'lchov kolbasiga solinadi. Ustiga 50 ml harakatchan faza qo'shiladi. 25 daqiqa davomida ultrato'lqinli hammonga solinadi. Eritma 0,45 µ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi. Filtrlangan eritmada 2 ml olinib 250 ml o'lchov kolbasiga solinadi va eritmaning hajmi kolba belgisigacha harakatchan faza bilan yetqaziladi. Tayyor bo'lgan eritma 45 µ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi.

Natijalar. Tayyorlangan standart eritma sistemaga yuborildi va 356 nm to'lqin uzunligida o'lchandi. Standart eritmada olingan pik bilan tekshiriluvchi modda tarkibidagi pikning chiqish vaqtlari bir-biriga mos tushishi kerak. Agar mos kelmasa, kolonkani almashtirish kerak. Bizda mos keldi, standart eritma 2,590 minutda chiqdi. Ekstrakt tarkibidagi rutin 2,570 minutda chiqdi. Analiz natijasida „Dekserich“ suyuq ekstrakti tarkibidagi rutin 0,7987 mg/ml, chiqdi. Olingan natijalar matematik statistik hisoblandi. Metrologik xarakteristika natijasiga ko'ra o'rtacha xatolik 1,77% va 1,38% ga teng bo'ldi.